

**“Kapitalbank” ATB
Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan
2018 yil 27 iyunda
“TASDIQLANGAN”**

(1/2018 bayonnoma)

Bank Kengashi raisi

imzo F.X.Otaxonov_

“Kapitalbank” aksiyadorlik tijorat bankining

**Taftish komissiyasi haqida
NIZOM**

Toshkent-2018

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati", "Aksiyador jamiyatlar va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish" (yangi tahrir), O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki tomonidan 2000 yil 24 iyunda 472 son bilan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2000 yil 5 iyulda 943 son bilan ro'yhatdan o'tkazilgan Tijorat banklarda korporativ boshqaruv haqidagi Nizomi va boshqa qonunchilik hujjatlari, shuningdek, "Kapitalbank" ATB (keyinchalik - "bank") korporativ boshqaruvining Nizomi va Kodeksiga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Nizom bankning Taftish komissiyasi tarkibi, vazifalari, vakolatlari, uni shakllantirish tartibi, bank boshqaruv organlari bilan ishlash va o'zaro hamkorligini belgilaydi.

II. TAFTISH KOMISSIYASINING HUQUQIY MAQOMI

3. Taftish komissiyasi bankning moliyaviy-xo'jalik faoliyati ustidan ichki nazorat vazifalarini amalga oshiruvchi bank organi hisoblanadi.

4. Taftish komissiyasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida", "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida" "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" gi qonunlariga (yangi tahriri), boshqa qonunchilik hujjatlariga, shuningdek, bank Nizomiga va Taftish komissiyasi va uning a'zolari faoliyatiga tegishli bankning boshqa lokal hujjatlariga asoslanib ish tutadi.

III. TAFTISH KOMISSIYASI TARKIBI

5. Taftish komissiyasi Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan saylanadi. Ovoz berish Taftish komissiyasi a'ziligiga har bir nomzod bo'yicha alohida amalga oshiriladi.

6. Taftish komissiyasi tarkibiga muayyan shaxsni kiritish to'g'risidagi qaror Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etayotgan bankning ovoz beruvchi aksiyalari egalarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Bank Kengashi a'zolariga yoki bank boshqaruv organlarida lavozimdagi shaxslarga tegishli aksiyalar Taftish komissiyasi a'zolarini saylashda ovoz berishda qatnasha olmaydi.

7. Taftish komissiyasi a'zolarining soni bank Nizomi bilan belgilanadi. Taftish komissiyasi uning a'zolarini qayta saylash huquqi bilan bir yil muddatga Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra saylanadi. Bunda bitta shaxs bitta jamiyatning taftish komissiyasiga ketma-ket uch martadan ortiq saylanishi mumkin emas.

8. Taftish komissiyasi a'zolari bir vaqtning o'zida bank Kengashi a'zosi bo'la olmaydi, bank boshqaruv organlarida boshqa lavozimlarni egallashi mumkin emas, shuningdek bankda mehnat shartnomasi bo'yicha ishlay olmaydi.

9. Taftish komissiyasi a'zolarining vakolatlari Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin.

Taftish komissiyasi a'zolariga quyidagi malaka talablari quyiladi:

- oliy kasbiy ma'lumot, iqtisodiyot, moliya va huquq sohasida kamida uch yil ish tajribasi mavjudligi;

- o'rta maxsus kasb-hunar ma'lumoti, iqtisodiyot, moliya va huquq sohasida kamida besh yillik ish tajribasi mavjudligi.

10. Taftish komissiyasi raisiga oylik pul mukofoti O'zbekiston Respublikasida

belgilangan eng kam ish haqining 10 barobariga teng miqdorda belgilanadi.

Taftish komissiyasi a'zolariga oylik pul mukofoti O'zbekiston Respublikasida belgilangan eng kam ish haqining 8 barobariga teng miqdorda belgilanadi.

Bankning Taftish komissiyasi raisi va a'zolariga o'tgan oy uchun haq to'lash keyingi oyning beshinchi kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Bank Taftish komissiyasi tarkibiga yangi a'zo kiritilganda yoki bank Taftish komissiyasi a'zosi bank Taftish komissiyasi tarkibidan chiqarilgan taqdirda, mukofot miqdori bank Taftish komissiyasining a'zosi bo'lgan haqiqiy kalendar kun hisobidan hisoblanadi.

Bank Taftish komissiyasi raisi va a'zolariga haq to'lashda mukofot hisoblangan sanada amal qilayotgan eng kam ish haqi miqdoridan foydalaniladi.

IV. TAFTISH KOMISSIYASI VAZIFALARI

11. Bankning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tekshirish Taftish komissiyasining, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining, Bank kengashining tashabbusiga ko'ra yoki ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga ko'ra Bank kengashini oldindan xabardor qilish yo'li bilan bir yillik yoki boshqa davr ichidagi faoliyat yakunlari bo'yicha amalga oshiriladi.

Bankning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish yakunlariga ko'ra Bankning Taftish komissiyasi xulosa tuzadi, bu xulosada:

bank hisobotlarida va boshqa moliyaviy hujjatlarida ko'rsatilgan ma'lumotlarning ishonchliligiga doir baho;

buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni taqdim etish tartibi buzilganligi, shuningdek moliya-xo'jalik faoliyati amalga oshirilayotganda qonun hujjatlari buzilganligi faktlari to'g'risidagi axborot ko'rsatiladi.

12. Taftish komissiyasi o'z vazifalarini bajarishda quyidagi ish turlarini amalga oshiradi:

bankda tayyorlangan moliyaviy ma'lumotlarning ishonchliligini tekshirish; bankning umumiy moliyaviy holati bo'yicha mustaqil xulosa va Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida yoki undan oldin bank aksiyadorlarini xabardor qilish uchun Taftish komissiyasi ishi natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

bank nomidan tuzilgan shartnomalar, amalga oshirilayotgan bitimlar, kontragentlar bilan hisob-kitoblarning qonuniyligini tekshirish;

moliyaviy-xo'jalik, ishlab chiqarish faoliyatida belgilangan me'yoriy ko'rsatkichlar, qoidalar va hokazolarga rioya qilinishini tekshirish;

bankning moliyaviy holatini, uning to'lovga qobilligini, aktivlarning likvidligini, o'zining va qarz mablag'lari nisbatini tahlil qilish; korxonaning iqtisodiy holatini yaxshilash uchun rezervlarini aniqlash va bank boshqarish organlari uchun tavsiyalar ishlab chiqish;

byudjetga to'lovlar to'lanishi, boshqa majburiyatlar uzilishi o'z vaqtida va to'g'ri amalga oshirilayotganini tekshirish;

soliq inspeksiyasi, statistika organlari, davlat boshqaruv organlariga topshiriladigan bank balanslari, hisobot hujjatlari to'g'ri tuzilganligini tekshirish;

buxgalteriya va statistika hisoblarini yuritishning amaldagi normativ hujjatlarga muvofiqligini zarur xolda birlamchi hujjatlarga murojaat qilgan holda tahlil qilish;

Bank Kengashi yoki bank Boshqaruvi tomonidan qabul qilingan qarorlarning to'g'riligini, ularning bank Nizomiga, bank Kengashi va Boshqaruvi to'g'risidagi nizomlarga va aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi qarorlariga muvofiqligini tekshirish;

aksiyadorlar Umumiy yig'ilishlari qarorlarini tahlil etish, O'zbekiston Respublikasi qonunlari va boshqa me'yoriy hujjatlaridan tafovut qilgan taqdirda

ularni o'zgartirish bo'yicha takliflar kiritish.

“Kapitalbank” ATB ning ichki nazorat to'g'risidagi Nizomiga muvofiq, bankning taftish komissiyasi doimiy ravishda ichki nazoratning amaldagi organi hisoblanadi va bankning va uning alohida bo'linmalarining moliyaviy-xo'jalik faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish uchun javobgar hisoblanadi.

V. TAFTISH KOMISSIYASINING HUQUQLARI

13. Taftish komissiyasi o'z vazifalarini to'g'ri bajarish maqsadida quyidagi huquqlarga ega:

bank boshqaruv organlarida lavozimni egallagan shaxslardan bankning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi uning ishlashi uchun zarur bo'lgan hujjatlarni yozma talab bo'yicha qabul qilish;

tadqiqot taftish komissiyasining vazifalari va vakolatlariga mos keladigan materiallar. Ko'rsatilgan hujjatlar va materiallar Taftish komissiyasiga uning yozma so'rovidan keyin (3 uch) kun mobaynida taqdim etiladi;

Yozma talab bo'yicha bank Ustavida belgilangan tartibda aksiyadorlar va bank Kengashining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish. Taftish komissiyasi talabiga binoan aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni rad etish to'g'risidagi qaror amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda amalga oshirilishi mumkin;

Bank xodimlaridan, shu jumladan istalgan mansabdor shaxslaridan, Taftish komissiyasi vakolatida bo'lgan masalalar bo'yicha shaxsan tushuntirish berishni talab qilish;

bankning boshqaruv organlari, uning bo'linmalari, xizmatlari, filiallari va vakolatxonalarini oldiga bank xodimlari, shu jumladan mansabdor shaxslar tomonidan amaldagi qonunchilik va bankning lokal qonun hujjatlarining talablari buzilgan holda javobgarligi to'g'risidagi masalani qo'yish.

VI. TAFTISH KOMISSIYASI VA UNING A'ZOLARI MAJBURIYATLARI

14. Taftish komissiyasining asosiy vazifalari bankda tayyorlangan moliyaviy ma'lumotlarning ishonchligini tekshirish, bankning umumiy moliyaviy holati bo'yicha mustaqil xulosa tayyorlash va bankning umumiy moliyaviy holati bo'yicha mustaqil xulosani va aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi yoki undan oldin bank aksiyadorlariga hisobot berish uchun komissiya ishi natijalari bo'yicha hisobotni tayyorlashdan iborat.

15. Tekshirishlarni o'tkazish paytida Taftish komissiyasi a'zolari tekshiruv mavzusiga taalluqli bo'lgan barcha hujjatlar va materiallarni sinchiklab tekshirishga majburdirlar. Noto'g'ri xulosalar uchun Taftish komissiyasi a'zolari aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi tomonidan belgilanadigan mezonlarda javobgar bo'ladilar.

16. Agar unga berilgan vakolatlarning amal qilish muddati mobaynida Taftish

komissiyasining a'zosi o'z vazifalarini bajarishini to'xtatsa, bu haqda u Kuzatuv kengashini Taftish komissiyasidagi ishini to'xtatishidan bir oy oldin Bank Kengashiga xabardor qilishi shart. Bu holda aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi o'zining eng yaqin vaqtda o'tkaziladigan majlisida Taftish komissiyasining a'zosini almashtiradi.

17. Taftish komissiyasi quyidagilarga majbur:

aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi, Kuzatuv kengashi, Boshqaruv e'tiboriga amalga oshirilgan taftish va tekshirishlar natijalarini Bank boshqaruv organlari majlislaridagi yozma hisobotlar, ma'ruzalar, axborotlar shaklida o'z vaqtida yetkazish;

tijorat sirini saqlash, o'z vazifalarini bajarishlari paytida Taftish komissiyasi a'zolari foydalana oladigan, sir saqlanadigan ma'lumotlarni e'lon qilmaslik;

Bank manfaatlariga haqiqatda xavf tahdidi paydo bo'lgan yoki mansabdor shaxslar yo'l qo'ygan suiiste'mol qilish aniqlangan taqdirda vakolatli organlardan aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishini chaqirishni talab qilish;

mustaqil yillik audit natijalari va ichki audit xizmati materiallaridan foydalanish.

18. Taftish komissiyasi Bank kengashiga moliya hisoboti va buxgalteriya hisobotini yuritish qoidalari va tartiblariga muvofiq yillik hisobotlar va balanslar bo'yicha xulosa taqdim etadi. Uning xulosasi bo'lmaganda aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi balansni tasdiqlashga haqli emas.

19. Taftish komissiyasi a'zolari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etishlari va uning ishtirokchilarining savollariga javob berishlari shart.

20. Taftish komissiyasi har chorakda bank Kengashi Majlisiga affillangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar yoki bankdagi yirik bitimlar mavjudligi, shuningdek bunday bitimlar tuzish uchun bank qonunchiligi va ichki hujjatlari talablariga rioya etilishi to'g'risida xulosa chiqaradi. Ushbu Nizomning 11-bandida ko'rsatilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan xulosa aksiyadorlarning yillik Umumiy yig'ilishida eshitiladi.

VII. TAFTISH KOMISSIYASI MAJLISLARI

21. Taftish komissiyasi o'z majlislarida barcha masalalarni hal etadi. Taftish komissiyasi majlislari tasdiqlangan reja bo'yicha, shuningdek tekshiruv yoki taftish boshlanishi oldidan va ularning natijalari bo'yicha o'tkaziladi. Taftish komissiyasining shoshilinch qarori talab etiladigan qonunbuzarliklar aniqlangan taqdirda taftish komissiyasi a'zosi komissiyaning majlisini zudlik bilan chaqirishni talab qilishi mumkin.

22. Taftish komissiya majlisi agar unda a'zolarning kamida 2 (ikkitasi) ishtirok etsa vakolatli deb hisoblanadi.

23. Taftish komissiyasining har bir a'zosi bitta ovozga egadir. Taftish komissiyasining dalolatnomalari va xulosalari majlisda

qatnashayotganlarning oddiy ko'pchilik ovozi bilan tasdiqlanadi. Ovozlar teng bo'lganda Taftish komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

Taftish komissiyasi a'zolari komissiya qaroriga rozi bo'lmaganlarida majlis bayonnomasida alohida fikrlarini qayd ettirishga va ularni bank Kengashi, bank Boshqaruvi va Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi e'tiboriga yetkazishga haqlidirlar.

24. Taftish komissiyasi o'z tarkibidan rais va kotibni saylaydi.

Taftish komissiyasi raisi:

majlislarni chaqiradi va o'tkazadi;

Taftish komissiyasining joriy ishini tashkil qiladi; Bank Boshqaruvi, bank Kengashi majlislarida, aksiyadorlar Umumiy yig'ilishida uning nomidan vakil bo'ladi;

uning nomidan chiqadigan hujjatlarga imzo chekadi.

Taftish komissiyasining kotibi:

majlis bayonnomalari yuritilishini tashkillashtiradi;

Taftish komissiyasining dalolatnomalarini va xulosalarini oluvchilarga yetkazadi.

uning nomidan chiqadigan hujjatlarga imzo chekadi.

VIII. YAKUNIY QOIDALAR

25. Mazkur Nizom, shuningdek, unga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

Kiritildi:

Yuridik xizmat Departamenti direktori

Kelishildi:

Boshqaruv raisi